



# “Nihol” mukofoti sovrindorlari

## “NIHOL 2019” DAVLAT MUKOFOTI SOVRINDORLARI

Samarali mehnat, yorqin natijalar, haqiqiy san’at va mahorat mukofotga loyiq. Go’zal ona Vatanimizda 2000 yildan buyon an’anaviy tarzda o’tkazilib kelinayotgan “Nihol” davlat mukofotining ko’rik-tanlovi ham estrada, musiqa, mumtoz qo’shiq, opera ijrochiligi va raqs san’ati kabi yo’nalishlarda faol ijod qilib kelayotgan iste’dodli yoshlarga topshiriladi. Bu yili O’zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 28 yillik shodiyonasi arafasida 29 avgust poytaxtimizning ko’rki bo’lmish muhtasham “Xalqlar do’stligi” san’at saroyida “Nihol 2019” marosimi tantanali ravishda bo’lib o’tdi. O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining 2 nafar talabasi mazkur mukofotni qo’lga kiritishdi.



Shulardan birinchi sovrindor Anvar Mirzayev 1994 yili Samarqand viloyatining Tayloq tumanida san'atkorlar oilasida tavallud topgan. Ilk musiqa ta'limini 5-sinfligida R.Glier nomidagi ixtisoslashtirilgan musiqa maktabida olgan. 2014 yili Rossiyada "Zolotoye kolso" musiqa tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritgan. Shu yili O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga hujjat topshirib, davlat granti asosida "Musiqali teatr aktyorligi" ta'lim yo'nalishiga o'qishga qabul qilindi.

"Men doim san'atni sevaman va ardoqlayman. Shu darajalarga yetishimda ustozlarim O'zbekiston san'at arbobi Timur Mahmudov, pedagoglar Gulbahor Mansurova, Sherzod Pirmatov, Nasrullo Qobilov, Ramziddin Qodirov, Gulshan Muhammedovaning hissalarini katta bo'lib, ularga cheksiz minnatdorchiligimni izhor etaman. Xudo xohlasa, kelgusida o'zbek musiqa san'atini

dunyoga yanada tarannum etaman! Shu o'ringda, ezgu maqsadlar sari ilg'or qadam tashlashimizga kamarbasta bo'layotgan muhtaram yurtboshimizga cheksiz minnatdorchiligimni izhor etaman!", – deydi "Nihol 2019" mukofoti "Estrada san'ati" yo'nalishi sovrindori Anvar Mirzayev.



Hozirda yosh xonandaning repertuaridan "O'zbekistonim", "Ota", "Vorislarmiz munosib" kabi qo'shiqlar o'rin olgan, uning ilk ijod mahsuli "Vatan uchun" deb nomlanib, O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid she'ri, mahoratli kompozitor Musaxon Nurmatov musiqasi bilan yozilgan. Anvar Mirzayev 2015 yili "Yagonasan, muqaddas

Vatan" Respublika ko'rik tanlovida faxrli 3-o'rinni egallagan. Institutdagi o'qishlari a'lo, go'zal xulqi va jamoat ishlaridagi faolligi bilan ustozlar e'tirofiga tushgan o'zbek o'g'loni davlat mukofotiga ham erishdi. Anvar Mirzayevga kelgusi ijodida bundanda ulkan zafarlar tilaymiz!

Ikkinchi sovrindor Ahror baxshi Xushvaqtov 1995 yili Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida tug'ilgan. Bolaligidan qashqar vohasining dostonlarini, sehrli do'mbira sadolari-yu, zibizg'a tovushini tinglab katta bo'lgan. Maktabda a'lo baholarga o'qigan, qalbidagi ona Vatanga bo'lgan muhabbat, baxshichilik san'atiga bo'lgan intilish


borgan sari avj oldi. 2016 yili O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Xalq ijodiyoti" fakulteti "Folklor va etnografiya" ta'lim yo'nalishiga o'qishga qabul qilindi. Hozirda institutning 4-kursida o'qib, o'zi sevgan soha bo'yicha professor-o'qituvchilardan saboq olmoqda.

"Doston – xalqimizning dard-u hasratlarini, otabobolarimiz hayotida kechgan yaxshi-yomon kunlarni o'zida mujassam etadi. Men doimo qo'limga do'mbira olib, doston kuylagan chog' qalbimda muqaddas Vatanga bo'lgan chin muhabbatni tuyaman! O'zbekiston bebaho Vatan ekanligini qalban his etaman va uning farzandi ekanimdan faxrlanaman!", – deydi sovrindor.

Ahror baxshi Xushvaqtoy "Nihol 2019" ko'rik-tanlovida "Mumtoz qo'shiq"

yo'nalishi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi. Ustozlari institut rektori, professor Ibrohim Yuldashev, O'zbekiston xalq baxshisi Shomurod baxshi Tog'ayev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Rustam Abdullayev, malakali pedagog Oygul Ahmedova bo'lib, ular yosh baxshining o'z mahorati ustida ishlashi uchun katta ko'mak berib kelishmoqda.

Ahror baxshi o'z oldiga ulkan rejalarini qo'ygan, shuningdek,



kelgusida o'zbek baxshichilik san'atini yanada rivojlantirishga bel bog'lagan. O'z do'stlari, ijodkor yoshlar bilan hamkorlikda "Baxshi kvarteti" guruhini tuzish harakatida yuribdi.

Har ikkala sovrindorni mukofot bilan chin yurakdan muborakbod etamiz! Ona Vatanimizning musiqa san'atini yanada rivojlantirish yo'lidagi izlanishlariga muvaffaqiyatlar tilab qolamiz!

**Dostonbek RAHMATULLAYEV**